

FORISH TUMANI QISHLOQLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

Qurbonova Dildora

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya ta'limi yo'nalishi talabasi


Annotatsiya: *Mazkur maqolada, Forish tumaning betakror go'zal tabiati, o'ziga xos landshaftlari, xilma-xil o'simlik va hayvonot dunyosi nodir arxeologik topilmalar yer yuzida kam uchraydigan geologik kesimlar yuzlab tabiiy yodgorliklar, ekoturistik obyekt sifatida o'rganilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Forish tumani, ekoturizm, barqaror rivojlanish, Nurota tog' tizmasi, Aydarko'l, arxeologik yodgorliklar, tabiiy yodgorliklar.*

Hozirgi kunda O'zbekistonda turizm iqtisodiyotning muhim sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, mamlakatimizda tabiatini betakrorligi bilan ajralib turadigan maskanlar juda ko'p. Faqat bu joylarning tabiiy holatini saqlab qolgan holda zamonaviy xizmat turlarini etibor qaratgan holda rivojlantirish va ularni keng ommaga reklama qilish zarur. Huddi shunday go'shalardan biri bu Jizzax viloyatining Forish tumani nafaqat viloyatda, balki respublika miqyosida ham o'ziga xos o'ringa ega tumanlardan biridir. Tuman o'ziga xos mikro iqlimi, go'zal tabiati va tabiiy yodgorliklari bilan ajralib turadi. Bunday joylarda sog'lomlashtirish turizmi hamda ekoturizmni rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi. Forish tumanining tog'li hududlari o'zining go'zal tabiati, biologik xilma-xilligi bilan birgalikda qadimda aholi yashagan manzilgohlari saqlanib qolgan hududlari ham mavjud o'lka hisoblanadi. Bunday joylar asosan tumanning tog' yonbag'irlarida joylashgan eng olis qishloqlarida saqlanib qolgan. Quyida ana shunday qishloqlarga to'xatalib o'tamiz.


Majurumsoy qishlog'i hududida O'rta Osiyo mintaqasida juda kam uchraydigan daraxt - Sharqiy biota archasi yaxshi saqlanib qolingani. Yoshi taxminan ikki ming yildan ortiq bo'lgan mazkur biotani mahalliy xalq "saur kabud" - "yashil savr" deyishadi. Uning aylanasi salkam 10 metrni tashkil etadi. Ushbu archa va shu hududdagi boshqa ko'p yillik mevali va manzarali daraxtlar tabiiy yodgorlik sifatida Nurota qo'riqxonasining muhofaza qilinadigan hududi tarkibiga kiritilgan. Mutaxassislarning fikricha, uzoq o'tmishda bunday archalar Nurota tog'lari hududida, xususan uning eng baland qismida joylashgan Majurumsoy qishlog'i atrofidagi tog'larda juda ko'p bo'lgan. Tog'dagi archazorlar muhofaza qilinmaganligi sababli ulardan mahalliy aholi qurilish materiallari hamda o'tin sifatida ayovsiz foydalanish natijasida archazorlar keskin kamayib ketgan. O'sha qadimgi davrlardan saqlanib qolgan yagona archa Majurumsoy qishlog'ining markaziy qismida joylashgan, aynan mana shu holat uning saqlanib qolishiga asos bo'lgan. Mahalliy xalq orasida Iskandar Zulqarnayn g'arbdan kelib, Ustrushonaga yurish boshlaganda mazkur daraxt tagida askarlari bilan dam olgan degan gap mahalliy aholi orasida avloddan-avlodga o'tib yuradi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu daraxtni saur archa deyishadi. Bu

archa asosan 1400-2500 m balandlikda o'sadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra saur archa ikki ming yildan ko'proq umr ko'radi. Archa daraxtining turli qismlaridan tabobatda ham foydalanishadi.



1-rasm. Mojarum archasi

Sentob qishlogi ham 2023-yilda (UNWTO) tomonidan “Eng yaxshi turizm qishlog”i (Best Butunjahon turizm tashkiloti Tourism Villages) nomiga nomzod qilib ko'rsatilgan va qishloq “turizm qishlog”l nomini olgan. Ushbu qishloq ham nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda o'zining qadimiy qiyofasini saqlab qolgan kam sonli maskanlardan biridir. Sentob qishlog'l Forish tumani ekoturizm salohiyatining yadrosi hisoblanadi. Bu yerda tabiiy landshaft (tog' ekotizimi) va madaniy meros (qadimiy tosh me'morchiligi) uyg'unlashgan. Qishloqning xalqaro miqyosdagi tan olinishi hududda barqaror tizimni rivojlantirish va “Green Destination (yashil yo'nalish) tamoyillarini joriy etish uchun huquqiy va iqtisodiy zamin yaratadi”. Sentob qishlog'i o'zining betakror tabiat manzaralari bilan boshqa qishloqlardan farq qiladi.



2-rasm. Toshda o'sgan bodom daraxti

Bu ajoyib manzara Sentobning (soyi xurd) darasida joylashgan. Tosh yorig'ida o'sayotgan bodom har yili gullab meva beradi. Bu manzara ham tabiatning naqadar matonatli ekanligidan dalolat beradi.



3-rasm. Sentobdagi qadimiy aholi manzilgohlari

Uxum qishlog'i ham tarixiy yodgorliklari betakror tabiati va baland tog' etaklarida joylashganligi bilan boshqa qishloqlardan ajralib turadi. Nurota tog' tizmasinig eng baland cho'qqisi Hayotboshi 2169 m Uxum qishlog'i hududida joylashgan. Aholisi asosan qishloq xo'jaligi va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Uxum qishlog'ida ham turizm yaxshi rivojlangan. Bu yerga taxminan bir yilda 10-15 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyuradi. Bu yerga asosan Fransiya, Germaniya, Italiya va Janubiy Koreyadan ko'plab turistlar keladi. Asosan bahor (aprel-may) va kuz (sentyabr-oktyabr) oylarida turistlar oqimi juda yuqori bo'ladi. Uxum qishlog'ida "Parandoz" g'ori mavjud bo'lib juda ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etadi.



4-rasm. Uxum qishlog'i

Uxum qishlog'i dengiz sathidan 1000-2000 metr balandlikda joylashgan. Hudud baland tog'lar soyliklar va kanyonlar bilan o'rab olingan. Hududning mikroiklimi o'ziga xos bo'lib yoz oylarida harorat o'rtacha 10-15⁰ C boladi. Bu ekoturizmni rivojlantirishga juda qulay sharoitdir.



5-rasm. Uxum turistik zonasi

Xulosa qilib aytganda Forish tumani qishloqlari O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishga katta ahamiyatga ega klaster hisoblanadi. Nurota tog' tizmasidagi betakror tabiat manzaralari ta'rixiy manzilgohlari hududlardagi iqlimiy qulayliklarni oshiradi va yilning barcha fasllarida turistlar oqimini ta'minlash imkonini beradi. Bir yilda o'rtacha ushbu qishloqlarga 10-15 ming xorijiy sayyohlarni tashrif buyurishi hududning yuqori darajada ekoturizmga boy ekanligini tasdiqlaydi. Hududlardagi saqlanib qolgan qadimiy tosh me'morchiligi "yashil yo'nalish" (Green Destination) tamoyillarini tatbiq etish imkonini beradi. Yashil yo'nalish bu dunyo miqyosidagi qoida bo'lib, unga ko'ra turizm tabiatga zarar yetkazmasligi aksincha uni asrash kerak. Qishloqlarda bu tamoiilni amalga oshirsa bo'ladi. Ya'ni tabiatni buzib mehmonxona qurmaymiz, balki bor bo'lgan qadimiy tosh uylarni saqlab qolamiz va sayyohlarga o'sha yerda xizmat ko'rsatamiz. Forish tumani qishloqlarida tabiatga ziyon yetkazmasdan sayyohlarni qabul qilish uchun tayyor imkoniyat bor. Biz hech narsaga zarar yetkazishimiz buzishimiz shart emas bor go'zalikni (tosh uylar va qadimiy urf odatlarni) shunchaki asrab- avaylab ko'rsata bilsak bo'ldi shuning o'zi eng zamonaviy "yashil turizm" hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musurmonqulov F.Sh, G'ulomov S.G "Forish tumani geografiyasi". Risola. 2025 y
2. Hakimov Q.M. Adilova O.A., Usmanov M.R. "Jizzax viloyati geografiyasi". Jizzax. Ilm Print. 2024 y.

3. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent 2019-yil.
4. Hakimov Q.M. Adilova O.A. Jizzax viloyati geografiyasi. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2015.
5. Ёўдалов М.Р. Жиззах вилояти табиати ва уни муҳофаза қилиш. -Т.: "Фан ва технология" нашриёти, 2014. 33-41 б.
6. Комилова Н.К., Усманов М.Р. Жиззах вилоятида туристик дестинацияларни ташкил этишнинг ҳудудий жихатлари. Монография – Жиззах. ЖДПУ "Таҳририй-нашриёт бўлими нашри", 2023. – 208 бет.